

## **FAOL REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA TUXUMDONLAR POLIKISTOZI TURLI SHAKLLARINING GORMONAL VA METABOLIK XUSUSIYATLARINI QIYOSIY TAHLIL QILISH**

**Sadirova Sarvinoz Sobirovna**

3-bosqich tayanch doktoranti

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola  
salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyat markazi”  
davlat muassasasi, Toshkent, O‘zbekiston.

Sadirova92@internet.ru

**Irgasheva Sevara Utkurovna, t.f.d.**

“Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola  
salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyat markazi”  
davlat muassasasi, Toshkent, O‘zbekiston

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda tuxumdonlar polikistozi sindromning turli shakllari kuzatilgan faol reproduktiv yoshdagi ayollarda gormonal va metabolik xususiyatlarining qiyosiy tahlili keltirilgan.

**Tadqiqotimizning maqsadi:** O‘zbekiston aholisida TPKS ning androgen (fenotip B) va noandrogen (fenotip D) fenotiplari kuzatilgan reproduktiv yoshdagi ayollarida ayrim gormonal, metabolik va antropometrik xususiyatlarini solishtirish.

**Materiallar va usullar:** Tadqiqot klinik va laboratoriya tekshiruvlari tuxumdonlar polikistozi sindromiga xos belgilar, ya’ni hayz davrining buzilishi, oligo/amenoreya, giperandrogenizm, TPKS ning ultratovush belgilari va bepushtlik bilan og’igan 45 nafar reproduktiv yoshdagi ayollarda o’tkazildi. Nazorat guruhini 15 nafar sog’lom, hayz sikli muntazam va reproduktiv disfunksiyasi bo’lmagan ayollar tashkil qildi. Kasallikning diagnostikasi va fenotiplari keng qamrovli tadqiqot natijalari va Rotterdam konsensusining (2003) tavsiyalariga ko’ra aniqlandi. Barcha bemorlar umumiy klinik tekshiruvdan o’tkazildi. Girsutizm darajasi Ferriman-Gallwey shkalasi yordamida baholandi.

**Natijalar va ularning muhokamasi:** Asosiy guruh bemorlari 2 ta kichik guruhga bo’lingan: I - fenotip B bo’lgan ayollar kichik guruhi va II - fenotip D bo’lgan ayollarning kichik guruhi. **Xulosa.** TPKS bilan og’igan bemorlarda

gormonal va metabolik o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar androgen va androgen bo'limgan fenotiplar o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida ushbu patologiyani davolashda differential yondashuvni talab qiladi.

**Kalit so'zlar:** TPKS, fenotiplar, androgen, noandrogen, gormonal, antropometrik va uglevod almashinuvi parametrlari.

**Kirish.** Tuxumdonlar polikistozi sindromi (TPKS) keng tarqalgan, multifaktorial va murakkab endokrin kasallik bo'lib, ushbu sindromli ayollarda belgilar va simptomlarning geterogenligi tashxisni qiyinlashtiradi. [1]. TPKS ayollar bepushtligining asosiy sabablaridan biridir. Ushbu kasallik bilan kasallanish umumiyligi aholi orasida 6-20%, reproduktiv yoshdagi ayollarda 5-10%, giperandrogenizmning barcha shakllarida 80-90%, anovulyatsion bepushtlikda 70-75%, ginekologlar va endokrinologlar bemorlarining taxminan 30% ini tashkil qiladi. [2]. Hozirgi vaqtda TPKS diagnostikasi uchun ko'pchilik tadqiqotchilar 2003 yilda Rotterdam konsensusi, Yevropa feritillik va embriologiya jamiyati va Amerika reproduktiv tibbiyot jamiyati tomonidan taklif qilingan diagnostika mezonlariga asoslanadi. Konsensusga ko'ra, TPKS polimorf, polietiologik kasallik bo'lib, ultratovush tekshiruviga ko'ra, giperandrogenizmning klinik va / yoki laboratoriya belgilari va tuxumdonlarning "polikistoz" morfologiyasi bilan birlashtirilgan ovulyatsiya disfunktsiyasi bilan tavsiflanadi [2]. Yuqorida sanab o'tilgan alomatlardan ikkitasining kuzatilishi tashxis qo'yish uchun yetarli deb qabul qilingan. Tuxumdonlar polikistozi sindromi hali ham istisno tashxisidir. Shuning uchun tashxis qo'yishda giperandrogenizm va hayz davrining buzilishi belgilari bilan yuzaga keladigan boshqa endokrin patologiyalarni istisno qilish kerak, bular: buyrak usti bezlari, qalqonsimon bezi kasalliklari, giperprolaktinemiya, jigarning sintetik disfunktsiyasi bilan bog'liq o'smalar hosil qiluvchi kasalligi, idiopatik girsutizm, yatrogeniya va boshqalar [3]. TPKS dislipidemiya, periferik insulin sezgirligining pasayishi (IR), giperinsulinemiya va Qandli diabetning 2-tipi kabi metabolik kasalliklar xavfi bilan bog'liq. Hozirgi kunda olib borilgan tadqiqotlarning natijalari metabolik va gormonal kasalliklar darajasi TPKS fenotipiga bog'liqligini ko'rsatadi. TPKS fenotiplari

insulinorezistentlik (IR), semizlik va uzoq muddatli metabolik va reproduktiv xavflar jihatidan farq qiladi. Semizlik TPKS bilan og'igan ayollarda eng ko'p uchraydigan alomatlardan biridir va ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, semizlik TPKS bilan og'igan normal vaznli ayollarga nisbatan metabolik va reproduktiv natijalarni sezilarli darajada yomonlashtiradi. Lekin shunga qaramasdan TPKS bilan og'igan tana vazni yuqori ayollar ham, ozg'in ayollar ham birdek metabolik kasalliklar kuzatilishi xavfi yuqori guruhga kiradi. Ko'pgina tadqiqotchilar IR bu masalada markaziy o'yinchi ekanligiga ishonishadi va u diagnostika mezonlariga kiritilmagan bo'lsa-da, TPKS bilan og'igan semiz va ozg'in ayollarda TPKS ga xos bo'lgan IR modeli mavjud. [5, 7]. Bugungi kundagi ko'pgina tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aynan IR ka javoban kompensatsion giperinsulinemiya TPKS ning ko'plab fenotipik xususiyatlarini belgilaydi. Giperinsulinemiya esa o'z navbatida tuxumdonlarning giperandrogenizmiga olib keladi. Bu jarayon TPKS bilan kasallangan ayollarning ko'pchiligidagi kuzatiladi. Yuqori darajadagi androgenlar va insulin birgalikda follikullarning yetilishiga putur yetkazadi, bu esa o'z navbatida noregulyar hayz ko'rish, anovulyatsion subfertillik, yetilmagan follikullarning to'planishi va keyinchalik tuxumdonlar polikistozi sindromiga olib keladi. [10]

Rotterdamdagи kelishuvga ko'ra, TPKS bilan kasallangan ayollarning 4 fenotipi ajratiladi:

Fenotip A - giperandrogenemija (klinik va/yoki biokimyoviy), surunkali anovulyatsiya yoki oligoovulyatsiya, ultratovush tekshiruviga ko'ra polikistoz tuxumdon morfologiyasini birlashtirgan TPKS ning klassik fenotipi;

Fenotip B - giperandrogenizm (klinik va/yoki biokimyoviy), oligo-anovulatsiya bilan tavsiflanadi, ammo ultratovush tekshiruviga ko'ra polikistoz tuxumdon morfologiyasi yo'q.

Fenotip C - muntazam ovulyatsiya davrlari fonida giperandrogenemija (klinik va/yoki biokimyoviy) va ultratovush tekshiruviga ko'ra polikistoz tuxumdonlar morfologiyasi bilan tavsiflanadi.

Fenotip D - surunkali anovulyatsiya va polikistoz tuxumdonlarning ultratovush belgilari bilan tavsiflanadi, ammo klinik/biokimyoviy giperandrogenemiyasiz [6,11]

S.U Irgasheva, D.V. Gulammaxmudovaning tadqiqotlari o'zbek reproduktiv yoshdagi ayollarda turli xil TPKS fenotiplari chastotasini aniqlash imkonini berdi: fenotip A (klassik, to'liq) (bemorlarning 28,0%); fenotip B (androgenik, anovulyator) taxminan 45,7% hollarda aniqlangan, fenotip C (ovulyatsiya) TPKS bilan kasallangan ayollarning 11,2% da, fenotip D (androgen bo'limgan) bemorlarning 12,1% da uchragan. [3, 4] TPKS bo'yicha ko'plab tadqiqotlar ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, turli xil TPKS fenotiplari bo'lgan ayollar gormonal, metabolik va antropometrik holatning ma'lum xususiyatlariga ega. [8] Ushbu tadqiqotlar natijalari boshqa fenotiplarga nisbatan A fenotipiga ega bo'lgan ayollarda LG ning yuqori miqdorini hamda yuqori LG/FSG nisbatini ko'rsatadi. Ushbu fenotipga ega bo'lgan ayollarda umumiyy testosteron va erkin androgen indekslari ham yuqori ekanligi aniqlangan. [9] Bir qator boshqa tadqiqotlar turli xil TPKS fenotiplariga ega bo'lgan ayollarning metabolik va konstitutsiyaviy xususiyatlariga oid qarama-qarshi natijalar haqida ma'lumotlar bergen. [6, 7, 12]. Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarning ba'zi mualliflari androgenik fenotipli (A, B, C) bemorlarning tana massasi indeksi yuqoriroq va bel aylanasi kattaroq ekanligini ta'kidlaydilar [6, 8], boshqalari esa TMI va insulin darajasida fenotiplar orasida farqlarni topmadilar. [14]. Zamonaviy adabiyotlarga ko'ra, anti-Myuller gormoni (AMG) darajasining oshishi TPKSning muhim belgilaridan biridir. Shu sababli, ushbu gormon darajasi turli xil TPKS fenotiplarida qanday namoyon bo'lishini o'rganish qiziq bo'ldi. [11, 10]. Ko'pgina tadqiqotchilar AMG ning eng yuqori darajasi androgenik fenotipli, ya'ni A, B, C fenotiplari bo'lgan ayollarda kuzatiladi va D fenotipi androgen bo'limgan fenotip bo'lganligi sababli, u odatda TPKS sindromining minimal ko'rinishini ko'rsatadi deb da'vo qiladilar. [13].

**Tadqiqotimizning maqsadi:** O'zbekiston aholisida TPKS ning androgen (fenotip B) va noandrogen (fenotip D) fenotiplari kuzatilgan reproduktiv yoshdagi ayollarida ayrim gormonal, metabolik va antropometrik xususiyatlarini solishtirish.

**Materiallar va usullar:** Klinik va laboratoriya tekshiruvlari tuxumdonlar polikistozi sindromiga xos belgilar, ya'ni hayz davrining buzilishi, oligo/amenoreya, giperandrogenizm, TPKS ning ultratovush belgilari va bepushtlik bilan og'igan 45 nafar reproduktiv yoshdagi ayollarda o'tkazildi. Barcha bemorlar umumiyl klinik tekshiruvdan o'tkazildi (anamnez toplash, fizik tekshiruv, antropometrik ma'lumotlarni har tomonlama o'rganish: bo'y, tana vazni, TMI, bel aylanasi / son aylanasi nisbatini aniqlash, tana konstitutsiyasini aniqlash), ultratovush tekshiruvi, gormonal tekshiruvlar (FSG, LG, LG / FSG nisbati, prolaktin, umumiyl testosterone, androstendion, jinsiy steroidlarni bog'lovchi globulin). Raqobatdosh kasalliklarni istisno qilish uchun (masalan, qalqonsimon bezning patologiyasi va buyrak usti bezining giperandrogenizmi) ushbu gormonlar TTG, T3erkin, T4erkin, AT dan TPO, DGEAS, 17-OH tekshirildi. Girsutizm darajasi Ferriman-Gallwey shkalasi yordamida baholandi. Kasallikning diagnostikasi va fenotiplari keng qamrovli tadqiqot natijalari va Rotterdam konsensusining (2003) tavsiyalariga ko'ra aniqlandi. Kichik chanoq a'zolarining ultratovush tekshiruvi SonoAce X4 (Janubiy Koreya) qurilmasida 8,0 MGts chastotali transvaginal sensor yordamida amalga oshirildi. Tuxumdon antral follikulalarining o'lchami, soni, o'lchami va joylashishi TPKS uchun eng so'nggi ultratovush tekshiruvi mezonlariga ko'ra baholandi: transvaginal 8 MGts sensorni joylashtirish paytida har qanday tuxumdonda diametri 2-9 mm bo'lgan 20 dan ortiq follikullalar yoki har qanday tuxumdonning 10 sm<sup>3</sup> dan kattalashishi (sariq tana, kista va dominant follikullsiz).

Olingan natijalar nazorat guruhini tashkil etgan hayz tsikli buzilmagan va reproduktiv disfunktsiyasi bo'limgan 15 nafar sog'lom ayolning ma'lumotlari bilan taqqoslandi.

**Natijalar va ularning muhokamasi:** Asosiy guruh bemorlari 2 ta kichik guruhga bo'lingan: I - fenotip B bo'lgan ayollar kichik guruhi va II - fenotip D bo'lgan ayollarning kichik guruhi. B fenotipli (androgen) ayollarning yoshi  $23,8 \pm 2,8$ , D fenotipli ayollarning yoshi (androgen bo'limgan)  $24,7 \pm 2,5$  va nazorat guruhidagi ayollarning yoshi (mos ravishda  $28,25 \pm 3,1$  yil) bir xil edi, birinchi hayz

ko'rish vaqtি (hayz ko'rish funktsiyasining boshlanishi): fenotip B bilan  $13,7 \pm 1,73$ , fenotip D  $12,7 \pm 1,56$ . , va nazorat guruhi mos ravishda  $13,5 \pm 0,5$  yil). B fenotipli ayollarda o'rtacha tana massasi indeksi  $28,3 \pm 1,45$  kg/m<sup>2</sup>, D fenotipi bilan  $23,7 \pm 2,7$  kg/m<sup>2</sup> va nazorat guruhida  $21,5 \pm 4,3$  kg/m<sup>2</sup> bo'lgan. TPKS bilan kasallangan ko'pchilik ayollarning asosiy shikoyatlari hayz siklining buzilishi va homiladorlikning yo'qligi edi. Tekshiruvdan o'tgan TPKS bilan og'igan bemorlar orasida B fenotipli 8 ta (28, 5%) va D fenotipi bo'lgan 6 ta (35%) bemorda saqlangan hayz davri aniqlandi. Oligomenoreya B fenotipli 13 ta (46%) va 9 ta (53 %) D fenotipi bo'lgan ayollarda kuzatildi. Ikkilamchi amenoreya B fenotipli 7 ta (25%) bemorda va D fenotipli 2 ta (12%) ayolda kuzatilgan. Birlamchi bepushtlik 1- kichik guruhdagi 18 ta (64%) va 2-kichik guruhdagi 10ta (55%) bemorda qayd etilgan. B fenotipli 4 ta ayol (14%) homiladorlik va tug'ish tarixiga ega; hayz va reproduktiv disfunktsiya keyinchalik paydo bo'lgan. O'z-o'zidan tushish B fenotipli 2 ta (7%) bemorda va D fenotipli bir (5%) bemorda sodir bo'lgan. Ayollar orasida eng ko'p uchraydigan ginekologik kasallik surunkali servitsit (54%) bo'ldi. B fenotipli 4 ayolda va D fenotipli 3 ayolda ortiqcha vazn kuzatildi, ulardan D fenotipli 1 ta bemorda I toifadagi semirish kuzatildi. TPKS B, D fenotiplari va taqqoslash guruhining gormonal ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan. TPKS ning B va D fenotiplari bo'lgan bemorlarda gormonal parametrlarni qiyosiy baholash bir qator guruhlararo farqlarni aniqladi (1-jadval). Androgen guruhdagi bemorlarda testosteronning yuqori darajasi aniqlandi (fenotip B), fenotip D bo'lgan ayollarda esa bu gormonning ko'payishi kuzatilmadi. Estradiolning eng past darajalari B fenotipiga ega bo'lgan guruhda aniqlandi. TPKS bilan og'igan bemorlarga xos bo'lgan, ammo kasallikning diagnostik mezoni bo'lman umumiylaboratoriya belgilaridan biri bu LG / FSG nisbati  $> 3$ . Fenotip B (anovulatsiya va GA) bo'lgan bemorlar boshqa guruhlarga qaraganda bir oz yuqori o'rtacha LG darajasiga ega edi. D fenotipiga ega bo'lgan ayollarda FSG qiymati nazorat guruhidagi sog'lom ayollardan sezilarli darajada farq qilmadi va LG / FSG indeksi normal chegaralar atrofida edi (0,98). Androgen fenotipi bo'lgan guruhlardagi bemorlarda DGEAS ko'rsatkichlari yuqori

edi ( $10,5 \pm 4,4$ ). Androgen bo'lмаган D фенотипи bo'lған айоллардаги гормондар дәражасы назорат гурӯхидаги соғлом айоллардаги гормондар дәражасыдан үнчалик фарқ қилмади және ең кім аниқ оғишларға ега edi. LG нинг 1,26 баробарға жарықтаптырылғанда о'sishiga va FSG дәражасынинг 1,02 баробарға пасайишига қарамағынан, бу гипофиз гормонларының нисбати соғлом айолларынан сезіларлық дәражада фарқ қилмади. Ушбу тадқиқотнинг бир қисмі сифатыда түрлі жағдайларда AMG дәражасын қиыншылдыру амалы оширилди. AMG нинг ең юғори дәражасы D фенотипи гурӯхидан ( $12,35 \pm 0,8$ ) күзатылған. Фенотип B және назорат гурӯхлары о'ртасында AMG дәражасы сезіларлық фарqlардың соғлығы edi, алар мөршілдегендегі  $6,24 \pm 2,3$  ng / ml және  $4,67 \pm 0,5$  ng / ml edi.

### **Kasallikning turli fenotiplarida va nazorat guruhida o'r ganilgan gormonal ko'rsatkichlar**

**1-jadval**

Gormonlar	B fenotip (I)	D fenotip (III)	Nazorat guruhı
FSG	$7,5 \pm 0,9$	$7,7 \pm 1,9$	$7,51 \pm 0,68$
LG	$11,6 \pm 1,1^{\diamond}$	$9,5 \pm 1,9^{*\wedge\#}$	$7,51 \pm 0,68$
TTG	$1,8 \pm 0,6$	$2,7 \pm 1,3$	$2,0 \pm 1,4$
T4 (erkin)	$17,8 \pm 2,6$	$16,0 \pm 1,3$	$14,2 \pm 3,4$
Prolaktin	$37,1 \pm 8,9^*$	$11,8 \pm 1,4$	$12,98 \pm 2,16$
Testosteron (umumi)	$1,8 \pm 0,3^{\diamond}$	$1,2 \pm 0,2^*$	$0,50 \pm 0,02$
Testosteron (erkin)	$2,6 \pm 0,3$	$1,4 \pm 0,5$	$0,9 \pm 0,3$
DHEA	$10,5 \pm 4,4^{\diamond}$	$5,2 \pm 0,8^{*\wedge\#}$	$1,29 \pm 0,18$
AMG	$6,24 \pm 2,3$	$12,35 \pm 0,8$	$4,67 \pm 0,5$

Eslatma: \* - назорат гурӯхига нисбетан ма'lумотларнинг ишончлilikи ( $P < 0,05-0,01$ ); ^ - андроген және башқа фенотип ко'rsatkichlari о'ртасидаги ма'lумотларнинг

ishonchliligi ( $P<0, 05-0, 01$ ); # - androgen bo'lмаган va boshqa fenotip ko'rsatkichlari o'rtasidagi ma'lumotlarning ishonchliligi ( $P<0, 05-0, 01$ ); Ikkala kichik guruhdagi ayollarning bo'yи va vaznini qiyosiy baholashda sezilarli farq aniqlanmadi. Biroq, B fenotipida TMI ( $28,3 \pm 1,45$ ) va Bel aylanasi / son aylanasi ( $0,88 \pm 0,07$ ) nisbati nazorat guriga nisbatan ( $TMI = 21,5 \pm 4,3$ ; BA / SA =  $0,71 \pm 0,06$ ) sezilarli darajada yuqorligi aniqlandi va bu boshqa tadqiqotchilarning bergen ma'lumotlariga mos keldi. Androgen bo'lмаган fenotipli ayollar, BA / SA ning normal qiymatlari ( $0,79 \pm 0,04$ ) aniqlandi. Giperandrogenemianing klinik va laboratoriya belgilari bo'lган bemorlarda asosan qorin sohasida semirish kuzatildi. Hayz tsiklining tabiatini baholash shuni ko'rsatdiki, eng uzun intermenstrual interval D fenotipli kichik guruhlarda kuzatilgan, shuning uchun 6 oygacha bo'lган oligomenoreya chastotasi D fenotipi bilan 31% ga yetgan, fenotip B bilan solishtirganda statistik jihatdan sezilarli farqlar mavjud. ( $p <0, 05$ ). Homiladorlik bilan qiziquvchilar orasida bepushtlik chastotasi bo'yicha fenotiplar o'rtasida farq yo'q ( $p>0, 05$ ), ammo D fenotipi vakillari orasida uzoq muddatli bepushtlik tendentsiyasi mavjud edi ( $p>0, 05$ ).

### **TPKS ning androgen va androgen bo'lмаган fenotiplari kuzatilgan bemorlarning va nazorat guruhining xususiyatlari**

#### **2-jadval**

<b>Ko'rsatkich</b>	<b>B fenotip</b>	<b>D fenotip</b>	<b>Nazorat guruhi</b>
Yoshi	$24,6 \pm 4,2$	$26,4 \pm 3,8$	$28,25 \pm 3,1$
TMI, kg/m <sup>2</sup>	$28,3 \pm 1,45$	$23,7 \pm 2,7$	$21,5 \pm 4,3$
Ortiqcha tana vazni, %	4 (14,2 %)	1 (1,88 %)	-
Bel aylanasi / Son aylanasi	$0,88 \pm 0,07$	$0,79 \pm 0,04$	$0,71 \pm 0,06$
Menarxe, yoshi	$12,5 \pm 1,2$	$13,4 \pm 0,8$	$13,5 \pm 0,5$
Homilador bo'lishni xohlovchilar, %	22 (78,5 %)	14 (82,3 %)	-
Homilador bo'lishni xohlovchilar orasida bepushtlik chastotasi, %	25 (89,2 %)	17 (100 %)	-

TPKS bilan og'rigan bemorlarda uglevod almashinuvi parametrlarini tahlil qilish kasallikning fenotipiga qarab ma'lum xususiyatlarni ham ko'rsatdi. 3-jadval shuni ko'rsatadi, xalqaro standartlarga muvofiq 75 g quruq glyukoza bilan o'tkazilgan og'iz orqali glyukoza tolerantlik testi davomida kichik guruhlar o'rtasida venoz qon plazmasida glyukoza darajasida sezilarli farqlar aniqlanmagan. TPKS bilan og'rigan barcha bemorlarda ochlikdagi insulin darajasi bir necha bor ortishi kuzatilgan. B fenotipiga ega bo'lgan ayollarda yuqori tana massasi indeksi va bel aylanasi son aylanasiga nisbati HOMA indeksining yuqori darajasi bilan birlashtiriladi, bu kuchli insulinorezistentlikni ko'rsatadi. Shunisi qiziqliki, D fenotipi bo'lgan ayollarda normal antropometrik ma'lumotlar (normal TMI, BA / SA nisbati) fonida sog'lom ayollarga nisbatan insulinning sezilarli darajada oshishi va shunga mos ravishda insulinrezistentlik belgilari mavjud.

### **Androgen va androgen bo'limgan fenotipli bemorlarda va nazorat guruhidagi uglevod almashinuvining ko'rsatkichlari**

#### **3-jadval**

Ko'rsatkich	B fenotip	D fenotip	Nazorat guruhi
Glukoza (och qoringa) mmol/	4,0±0,1	5,73±1,01	3,78± 0,84
Insulin (och qoringa) μU/ml	11,54±1,2	14,76 ± 3,56	7,5 ± 0,7
HOMA (HOMA>2,5)	2,21±0,3	3,54±0,3	1,38±0,18

Shunday qilib, TPKS bilan og'rigan bemorlarda gormonal va metabolik o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar androgen va androgen bo'limgan fenotiplar o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida ushbu patologiyani

davolashda differentsial yondashuvni talab qiladi. Olingan natijalarni hisobga olgan holda, bemorlarni davolash TPKS fenotipiga va aniqlangan gormonal va metabolik o'zgarishlarga qarab amalga oshirilishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Леандро М Велес, Маркус Селдин, Алисия Б. Мотта. Фенотипы синдрома поликистозных яичников и связь с метаболическими особенностями и воспалением // Биология репродукции, том 104, выпуск 6, июнь 2021г. Стр. 1205-1217.
2. Е.А. Гафарова. Клинико-лабораторные проявления СПКЯ в зависимости от фенотипических особенностей и уровня витамина D в крови // Акушерство.Гинекология. Практическая Медицина.1 (93) 2016г. Стр.80-84.
- 3.С.У. Иргашева, Д.В. Гуламмахмудова, М.М Алиева. Сравнительная оценка клинических показателей различных форм поликистоза яичников. Новости дерматовенерологии и репродуктивное здоровье, 2017 г, № 4, с.59-60
4. Иргашева С.У., Алиева М.М., Курбанова Д.А., Мирзаева Ю.К. Состояние овариального резерва у женщин с синдромом поликистозных яичников – Новости дерматовенерологии и репродуктивного здоровья, 2020, №1-2, с. 37-39.
5. А.Ю. Беглова, С.И. Елгина. Диагностика синдрома поликистозных яичников на основе клинико - анамнестических факторов, гормональных и ультразвуковых маркеров с применением компьютерной программы // Акушерство и Гинекология, номер-3/2020г. Москва. Стр.133-139.
6. Gerard Conway, Didier Dewailly, Evanthis Diamanti-Kandarakis. Sindrom polikistozníx yaichnikov // European Journal of Endocrinology, 171(2014) 1-29.32-48 STR.
7. В.К. Лихачев, Практическая гинекология с неотложными состояниями, ООО “Медицинское информационное агентство” 2013г. Стр 280.
8. И. П. Николаенков, В.В. Потин, М. А. Тарасова, М. И. Ярмолинская, Н.Н. Ткаченко, Я. А. Самойлович, Е. М. Тимофеева. Активность овариальной ароматазы у больных синдромом поликистозных яичников. Журнал акушерства и женских болезней. 2014 № 1. С.10-15.
9. Е.М. Тимофеева, Е.В. Миширина, И.П. Николаенков, Я.А. Самойлович, Н.Н. Ткаченко. Методические подходы к определению овариальной ароматазы при синдроме поликистозных яичников. // Акушерства и женских болезней. 2016 № 1 С. 54-61
10. С.В. ЮРЕНЕВА, к.м.н. Л.М. ИЛЬИНА. Современные рекомендации по лечению синдрома поликистозных яичников: преимущества оральных

контрацептивов с антиандрогенными прогестинами. Проблемы репродукции, 2017, №4, С. 56-64.

11. The Rotterdam ESHRE/ASRM-Sponsored PCOS consensus workshop group. Revised 2003 consensus on diagnostic criteria and long-term health risks related to polycystic ovary syndrome (PCOS) // Hum. Reprod. 2004. Vol. 19, N 1. P. 41–47..
12. Джохам А.Э. и соавт. Синдром поликистозных яичников. Лансет Диабет Эндокринол.2022.ПМИД35934017 обзор.
13. Lizneva D.,Suturina L., Walker W.,Brakta S., Gavrilova-Jordan L., Azziz R. Criteria, prevalence and phenotypes of polycystic ovary syndrome. Fertil.Steril.2016. 106(1); 6-15.
14. Osawa Y, Yoshida N, Fronckowiak , et al. Immuno-affinity purification of aromatase cytochrome P 450 from human placental microsomes, metabolic switch-ing from aromatization to 1- and 2-monohydroxylation, and recognition of aromatase sozymes. Steroids. 1987; 50:11-28. : 10.1016/0039-128X(83)90058-2.